

PRAGMALINGVISTIKADA PRESUPPOZITSIYA VA TAGMA'NO

Eshmaxmatova Nasiba Fozil qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Magistranti.

nasibaeshmaxmatova047@gmail.com +99888-120-10-60<https://doi.org/10.5281/zenodo.20360330>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek va jahon tilshunosligidagi pragmalingvistik tadqiqotlar haqida batafsil ma'lumotlar beriladi. Presuppozitsiya va tagma'no haqida fikr va mulohazalar yuritiladi va misollar yordamida ular o'rtasidagi farqlar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Pragmalingvistik tadqiqotlar, presuppozitsiya, tagma'no, pragmalingvistik tahlil.

Аннотация. В данной статье представлены подробные сведения о прагмалингвистических исследованиях в узбекском и мировом языкознании. Излагаются мнения и суждения о пресуппозиции и подтексте, а также на примерах раскрываются различия между ними.

Ключевые слова: Прагмалингвистические исследования, пресуппозиция, подтекст, прагмалингвистический анализ.

Abstract. This article provides detailed information on pragmalinguistic research in Uzbek and world linguistics. Reflections and opinions on presupposition and subtext are discussed, and the differences between them are revealed through examples.

Keywords: Pragmalinguistic research, presupposition, subtext, pragmalinguistic analysis.

Kirish. (Introduction). Bugungi kunda o'zbek va jahon tilshunosligida pragmalingvistik tadqiqotlar o'zining asl mohiyatini topib bormoqda, chunki XX asrning so'nggi choragidan antroposentrik yo'nalishning kirib kelishi boshqa zamonaviy fanlar qatorida pragmalingvistika rivojiga ham katta turtki bo'ldi. Dunyo tilshunosligida Ch. Morris¹ tilga belgilar sistemasi sifatida yondashdi. B.Rassel, J.Ostin, X. Grays, J. Syorl, K.Allan, J.Lich va boshqalar nutqiy akt nazariyalari tasnifiga doir nazariy fikrlar bildirdilar, R.Lakoff² deysis va uning turlarini tasnifladi. R.Deklerk³ va Ch.Fillmor⁴ rus tilshunosligida, O.Artyomov⁵ va T.Voloshina⁶ nutqiy akt tasniflari va shunga o'xshash bir qancha tadqiqotchilar o'zlarining qarashlarini bayon etganlar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. (Literature review). O'zbek olimlari ichida ham zamonaviy tilshunoslik yo'nalishida tadqiqot ishlari olib borgan va shu jumladan pragmalingvistikaning rivojiga hissa qo'shgan bir qancha olimlarni sanab o'tishimiz mumkin.

¹ Моррис Ч.У. Основания теории знаков. Издательство «Деловая книга». – Екатеринбург, 1999.

² Lakoff R. Remarks on This and That. In: Papers from the tenth regional meeting of Chicago linguistic society. – Chicago, 1974.

³ Declerck R. The Grammar of the English Tense System. A Comprehensive Analysis. Volume 1: – Berlin, Mouton de Gruyter, 2006.

⁴ Fillmore Ch. Santa Cruz Lectures on Deixis. – Indiana: University Linguistic Club, 1975.

⁵ Артёмова О.А. Типология дейксиса в семантико-прагматическом аспекте. – Минск: МГЛУ, 2019

⁶ Волошина Т.Г., Миронова Г.В. Семантика и прагматика косвенных речевых актов вопросительных конструкций (на материале англоязычных сценарных текстов). Белунова Н.И. Вопросительное и побудительное предложения в коммуникативном аспекте. – С.Петербург, 2013. Электрон статья: ISSN 1997-2911. № 3 (69) 2017. Ч. 2.

A.Nurmonov va N.Mahmudov ilmiy izlanishlarida presuppozitsiya, tagma'no kabi pragmalingsvistik tahlil tushunchalariga munosabat bildirishdi⁷. M. Hakimov o'zbek olimlari ichida nutqiy aktlar nazariyasi va deyxsisga oid bo'lgan tadqiqotlar olib bordi. Sh. Safarovning "Pragmalingsvistika"⁸ darsligi esa uning mustaqil fan sifatida shakllanishiga zamin yaratdi.

Durdona Xudoyberganova "Matnning antroposentrik tadqiqi"⁹ nomli dissertatsiyasi bilan zamonaviy tilshunoslik borasidagi o'zining qarashlarini namoyon qildi. U. Rahimov¹⁰ presuppozitsiya terminining xususiyatlariga batafsil to'xtalib o'tdi va o'z qarashlarini bayon qildi.

Tahlil, natijalar va metodlar (Analysis, results and method). Presuppozitsiya va tagma'no tushunchalari matnni yoki diskursiv nutqni pragmalingsvistik tahlil qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Presuppozitsiya hodisasini tadqiq etishdan oldin, eng avvalo, presuppozitsiya atamasinining lug'aviy ma'nosini ko'rib o'tamiz. Presuppozitsiya termini lotincha "sub" – "osti", "tagi" va "ponere" – "joylashtirmoq", "joylashmoq" kabi ma'nolarni ifodalaydi¹¹. Presuppozitsiya tushunchasi, dastlab, falsafada, yuzaga kelgan bo'lib, G.Frege uni ilmiy amaliyotga kiritgan; keyinchalik presuppozitsiya lingvistikaga kirib keldi va Ch.Fillmor, A.Svika, G.Gabriel, J.Lakoff, N.Xomskiy, E.Kinen, V.A.Zveginsev, N.D.Arutyunova va boshqa bir qator olimlar tomonidan o'rganildi va o'rganilmoqda¹². A. Nurmonov o'zining sintaksisga bag'ishlangan mulohazalarida presuppozitsiya sodda gapni mazmuniy jihatdan murakkablashtirib berishini aytib o'tadi. Bu murakkabliklar qanday o'rinlarda ko'rinishi mumkin, degan savol, albatta, beriladi. Biz bilamizki, sodda gap bitta propozitsiyaga ega bo'ladi.

Qo'shma gap esa ikki va undan ortiq propozitsiyalarga ega bo'ladi. Lekin mazmuniy sintaksisda shunaqa qonuniyatlar borki, qo'shma gap bilan sodda gapni mazmuniy tahlil qilganda ular teng bo'lib qolishi ham mumkin. Ya'ni sodda gapning presuppozitsiyalari soni qo'shma gapning propozitsiyalari soniga teng bo'ladi:

Kitob do'koniga bordim va kitob sotib oldim. (ikkita propozitsiya, ya'ni ikki ish-harakat amalga oshirilgan)

Kitob sotib oldim. (presuppozitsiyalari: *kitob do'koniga borgan, boshqa do'konga emas.*

Keyin esa kitob sotib olgan.)

Biz matnni va matn tarkibidagi gaplarni presuppozitiv tahlil qilar ekanmiz, gaplarning sintaktik qurilishiga, leksik birliklar bilan shakllanishiga ham e'tibor berishimiz kerak. Chunki yuqoridagi fikrlarda ham ta'kidlaganimizdek, deyxtik birliklar ham leksik vositalar edi. Leksik vositalar pragmalingsvistik tahlilda asosiy vazifani bajaradi va sintaktik qurilishda ham rol o'ynaydi. Gaplarni murakkablashtiruvchi vositalar ham aynan mana shu leksik vositalardir. Har qanday sodda gapda presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositalar, ayniqsa, leksik ma'noga ega bo'lmagan yordamchi so'zlar, olmoshlar, ravishlar, o'xshatishli qurilmalar ishtirok etadigan bo'lsa, o'sha gap mazmuniy jihatdan murakkab bo'ladi¹³

Bugungi kunda ko'pchilik olimlar tomonidan presuppozitsiya va tagma'no tushunchalari tadqiq qilingan, ularning o'rtasidagi farqqa ham e'tibor berilgan va bugungi kungacha davom

⁷ Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Т., 1995.

⁸ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2008.

⁹ Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Т.: Фан, 2013.

¹⁰ Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси. Фил. фан. номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Самарқанд, 1994.

¹¹ Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси. номзодлик дисс. – Самарқанд, 1994. – Б. 2.

¹² Махмудов Н. Пресуппозиция ва гап. ЎТА. 1986. № 6. – Б. 28.

¹³ Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси. номзодлик дисс. – Самарқанд, 1994. – Б.

etib kelmoqda. Lekin ayrim olimlar bu hodisalar ikki xil tushuncha emas, balki bir xil xususiyatga ega bo'lgan ikki nom ostidagi birliklar ekanligini aytib o'tishadi. Lekin pragmatik tadqiqotlar bular haqiqatdan ham ikki xil tushuncha ekanligini isbot qila oladi.

Tagma'no va presuppozitsiyaning farqini U. Rahimov quyidagi jadval asosida tasniflab bergan¹⁴.

N	Tavsifi	Presuppozitsiya	Tagma'no
1	Gapda ifodalangan hukmning tabiiy asosi	+	-
2	Umumiy bilish xazinasi	+	+
3	Oldindan bilishning jami	+	+
4	Hukm tanasidagi mazmun	+	+
5	Yashirin axborot	+	+
6	Matn ichidagi matn	+	+
7	Matn ostidagi matn	+	+
8	Zohiriy uzvlar ishorasi	+	+
9	So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi shartnomaviy munosabat	+	-
10	Matn ichidagi yashirin mazmun	-	+
11	zohiriy uzvlar orqali emas, oldingi matn orqali tushuniluvchi matn	-	+
12	urf-odat, geografik muhit orqali tushunish	+	-
13	pragmatik sath uzvi	+	+
14	Nutq hodisasi	+	+
15	psixologik asoslar orqali tushuniluvchi ma'no	+	-
16	Lingvistik bilim orqali anglashiluvchi ma'no	+	+
17	Mantiqiy xulosa	+	-
18	Maxsus bilim orqali tushuniluvchi yashirin hukm	+	+

Biz asosan matnni tahlil qilish jarayonida undagi tagma'nolarni tahlil qilishga harakat qilamiz. Gapni tahlil qilishda esa presuppozitiv ma'nolarni aniqlashga urinamiz.

¹⁴ Раҳимов У. Тагма'но ва пресуппозиция // Ўзбек тили ва адабиёти // 2005. №5.

Chunki gapda presuppozitsiya bo'ladi. Umumiy matndan bir presuppozitsiyani qidirmaymiz. Biz butun bir matn orqali undagi tagma'noni topishimiz mumkin. Chunki gapdagi tagma'noni aniqlashda matnning undan oldingi qismi bilan, ya'ni oldingi voqelik bilan bebosita tanishgan bo'lishimiz kerak.

E'tibor berganmisiz: qaldirg'och fayzsiz, noahil xonadonga hech qachon in qurmaydi. Goho qaldirg'och odamdan aqlliroqmikin, deb o'ylab qolaman¹⁵.

Yuqoridagi misolda qaldirg'och odamdan aqlliroqmikin, degan gapning tagma'nosini anglashimiz uchun matnning ushbu gapdan yuqoridagi qismi bilan ham tanishishimiz kerak bo'ladi. Bu o'rinda aynan mana shu gapning presuppozitsiyasi ham matnning yuqoridagi qismi asosida anglashiladigan tagma'noga aloqador bo'ladi.

Qadim zamonda bir yurt podshosining xazinasidan bebaho gavhar yo'qolibdi. Boshqa yurtlardan kelgan savdogarlar gumon bilan hibsga olinibdi. Atrofiga qilich yalang'ochlagan soqchilar qo'yilibdi. Ittifoqo o'sha yurtga to'rt nafar o'zbek savdogari ham borib qolgan ekan.

Ularni ham hibsga olibdilar. Ammo tepasiga soqchi qo'yishmabdi. Sababini so'rashsa, **“bularga soqchining keragi yo'q, biri qutulmoqchi bo'lsa, ikkinchisini tutib beradi”**, debdilar...

Ushbu matndagi bularga soqchining keragi yo'q, jumlasini anglashimiz uchun undan keying jumlagi diqqatimizni qaratishimiz kerak.

Umumiy xulosa. Presuppozitsiya va tagma'no tushunchalarining ikkalasi ham matnning pragmatik tahlilida muhim ahamiyat kasb etadi. Presuppozitsiyani tahlil qilish jarayonida aynan o'sha gapga e'tibor beramiz. Bu umumiy bilish nazariyasiga qaratilgan bo'ladi va bu yerda tinglovchining va so'zlovchining mantiqiy fikrlashi katta rol o'ynaydi. Matndagi tagma'nolarni aniqlash jarayonida esa tinglovchining sinchkovligi va matnning dastlabki qismi bilan tanishganligi asosiy vazifani bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Моррис Ч.У. Основания теории знаков. Издательство «Деловая книга». – Екатеринбург, 1999.
2. Lakoff R. Remarks on This and That. In: Papers from the tenth regional meeting of Chicago linguistic society. – Chicago, 1974.
3. Declerck R. The Grammar of the English Tense System. A Comprehensive Analysis. Volume 1: – Berlin, Mouton de Gruyter, 2006.
4. Fillmore Ch. Santa Cruz Lectures on Deixis. – Indiana: University Linguistic Club, 1975.
5. Артёмова О.А. Типология дейксиса в семантико-прагматическом аспекте. – Минск: МГЛУ, 2019
6. Волошина Т.Г., Миронова Г.В. Семантика и прагматика косвенных речевых актов вопросительных конструкций (на материале англоязычных сценарных текстов). Белунова Н.И. Вопросительное и побудительное предложения в коммуникативном аспекте. – С.Петербург, 2013. Электрон статья: ISSN 1997- 2911. № 3 (69) 2017. Ч. 2
7. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Т., 1995.
8. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008.
9. Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик таъкиди. – Т.: Фан, 2013.
10. Рахимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси. Фил. фан. номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Самарқанд, 1994.

¹⁵ O'tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – T.: Yangi asr avlodi, 2018.

11. Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси. номзодлик дисс. – Самарқанд, 1994. – Б. 2.
12. Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап. ЎТА. 1986. № 6. – Б. 28.
13. Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси. номзодлик дисс. – Самарқанд, 1994. – Б. 2.
14. Раҳимов У. Тағмаъно ва пресуппозиция // Ўзбек тили ва адабиёти // 2005. №5.
15. O'tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – T.: Yangi asr avlodi, 2018.